

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAXMUDOVA NODIRA UKTAMOVNA

**O‘ZBEKISTONDA TA‘LIM TURIZMINI SAMARALI
RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Maxmudova Nodira Uktamovna

О'zbekistonda ta'lim turizmini samarali rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari ...3

Махмудова Нодира Уктамовна

Перспективные направления эффективного развития образовательного туризма
в Узбекистане29

Makhmudova Nodira Uktamovna

Perspective directions for the effective development of educational tourism in
Uzbekistan57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAXMUDOVA NODIRA UKTAMOVNA

**O‘ZBEKISTONDA TA‘LIM TURIZMINI SAMARALI
RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3382 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich
iqtisod fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Safarov Bahodir Shaxriyorovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xidirova Gavhar Rustamovna
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.1.72.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "7" yanvar soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (998 65) 221-26-92, (998 65) 221-27-07, e-mail: ilmiy_innovatsiya@buxdu.uz

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1/1814 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (998 65) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "20" dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil "20" dekabr dagi 23 raqamli reyestr bayonnomasi).



O.X. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.Sh. Yavmutov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

[Handwritten signature]

B.N. Navro'z-zoda

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlari iqtisodiyotida turizm shunday o'ziga xos sohaki, uning faoliyatidagi "tebranishlar" 50 ta farqli sohalarga bevosita yoki bilvosita ta'sirga ega. Bular orasida ta'lim sohasi yetakchi o'rinni egallab, ta'lim va turizm sohalarini samarali rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari belgilash muhim ahamiyatga ega. Jahon ta'lim turizmi bozori eng tez rivojlanayotgan bozorlardan biridir. So'nggi o'n yilliklarda ta'lim turizmi ommaviy turizm singari keng ko'lamda rivojlanmoqda. Global ta'lim turizmi bozori 2024-yilda 470,15 mlrd. AQSh dollariga baholandi hamda 2024-2031 yillar uchun prognoz davrida yillik o'rtacha o'sish ko'rsatkichi 12,8 foizni tashkil etgan holda 2031-yilga kelib 1,092 trln. AQSh dollariga yetishi kutilmoqda.¹ Bu esa ta'lim turizmi xalqaro turizm bozorini rivojlantiruvchi drayverlaridan biri ekanligini asoslab bermoqda.

Jahonda hududlarning ta'lim turizmini rivojlantirish hamda ularning istiqbolli yo'nalishlari belgilash borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasidagi islohotlar va sezilarli o'sish, davlatning qulay siyosati hamda iste'molchilar ixtiyoriy daromadining oshishi, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi o'rta sinfining kengayishi ta'lim turizmi bozorini harakatga keltiruvchi muhim omillar sanaladi. Ayni paytda global ijtimoiy-siyosiy vaziyat ta'lim turizmining moslashuvchanligini oshirish talabini shakllantirdi. Bu holatda ushbu turizm turida huquqiy-meyoriy takomillashtirish, milliy va xalqaro imkoniyatlarning uyg'unlashuvi, texnologik hamda ta'lim platformalarini xalqarolashtirish va raqamlashtirish jarayonlarida ilmiy-uslubiy yondashuv, turli ta'lim shakllarini qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini tashkil etish orqali hududiy ta'lim turizmi salohiyatini yuksaltirish borasidagi izlanishlar ilmiy tadqiqotning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda turizm sohasi drayverlardan biri sifatida qabul qilingan bo'lib, uning istiqbolli yo'nalisharida mavjud salohiyatdan optimal foydalangan holda sayyohlar oqimini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, "... 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish, turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan dasturiy ta'minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga yetkazish"² vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish turizm sohasini rag'batlantirish hamda sohada ta'lim tizimi xizmatlarini takomillashtirish orqali ta'lim turizmi komponentlaridan maqsadli foydalanish, ta'lim turizmida hududiy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sir etuvchi faoliyat samaradorligini oshirish, ta'lim turizmini samarali rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash bilan bog'liq mexanizmlarni takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son

¹ Coherent Market Insights. [Elektron resurs]. URL: <https://www.coherentmarketinsights.com/industry-reports/educational-tourism-market>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

“O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 24-dekabrda PQ-60-son “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-son Qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’lim turizmi xizmatlarini tashkil etishning nazariy va metodik masalalari hamda ta’lim turizmini mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini baholash borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan B.Ritchi, N.Carr, C.Cooper, P.Doyle, S.Taylor, Yu.Chebotar, R.Wei-lin, M.Xiao-Tong, C.Yingfang, M.Salomon, S.Sokolowski, M.Haddock, S.Chen³ kabi xorijiy olimlar ta’lim turizmining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini hamda hududlardagi ta’lim turizmi salohiyatidan samarali foydalanish xususiyatlari bilan bog‘liq qarashlarini ilmiy asarlarida ifodalashgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlari E.A.Lunin, I.B.Zorin, V.A.Kvartalnov, A.R.Lebedev, V.P.Solomin, V.L.Pogodina, A.G.Guseynova, A.N. Kovalyova, A.V.Sudorojenko, M.A.Jukova, V.M.Moskovkin,

³ Ritchie B.W., Carr, N., Cooper, C. Managing Educational tourism.– Great Britain: Cromwell Press, 2003. – P.306.; Дойль П. Маркетинг-менеджмент и стратегия / пер. с англ. С. Жильцов - 3-е изд. - СПб: Питер, 2002. – 538 с.; Taylor S. Theorizing Educational Tourism: Practices, Impacts and Regulations in Ecuador. – New York: Columbia University. – 2006. – P.306; Чеботарь Ю. М. Туристический бизнес: практ. пособие для турфирм и их клиентов. М.: Мир деловой книги, 1997. 80 с.; Ren Wei-lin, Ma, Xiao-Tong. Bacon's view on tourism and its enlightenment to Yen et al.; AJESS, 17(1): 1-16, 2021; Article no.AJESS.6789312postgraduate tourism. Journal of Tourism. 2018;33(09):145-150; Cui, Yingfang. Research on the development status and suggestions of research & study travel. Jiangsu Business Theory. 2020.03:74-76; Salomon M., Sokolowski S., Haddock M. Measuring the economic value of volunteer work globally: concepts, Estimates and a roadmap to the future // Annals of Public and Cooperative Economics. - 2011. – 82(3). - P. 217 -252, Chen S.C. Understanding the Evolving Roles of Outbound Education Tourism in China: Past, Present, and Future // Athens Journal of Tourism. -2020. - Vol.7. - P. 101 – 116.; Gaines Post and William J. Courtenay. The Papacy and the Rise of the Universities./ Education and Society in the Middle Ages and Renaissance series/ chapter 5, 2017.116–121p.

S.Yan, M.M.Gamburg, E.C. Saxarchuk, E.A.Chaykovskaya, N.Yu.Loginova⁴ tomonidan ta'lim turizmining tashkiliy-uslubiy jihatlari hamda uni rivojlantirishda ilg'or xorij amaliyotidan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan.

O'zbekistonda turizm sohasini, jumladan, ta'lim xizmatlarini rivojlantirish mamlakatimizda M.Sharifxo'jayev, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, N.Q.Yo'ldoshev, A.A.Eshstayev, O.X.Xamidov, B.N.Navro'z-zoda, H.R.Hamroyev, B.Sh.Safarov, D.X.Aslanova, N.S.Ibragimov, S.S.Ro'ziyev, M.T.Alimova, A.T.Mirzayev, M.I.Ibragimova, H.F.Ochilova kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.⁵

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlar turizm sohasini rivojlantirishning turli jihatlari, jumladan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, turizm salohiyatini yanada oshirish borasida ilmiy-nazariy tadqiqotlarni amalga oshirib, soha rivoji uchun o'z hissalarini qo'shganlar. Biroq aynan ta'lim turizmining alohida tadqiqot obyekti sifatida nazariy va amaliy xususiyatlari o'rganilmagan. O'zbek tadqiqotchisi M.Ibragimova ta'lim turizmi xizmatlariga bag'ishlangan ilmiy ishida ta'lim turizmining makro va mikro ko'lamda taraqqiyot asoslarini mukammal tahlil qilib, asosan inson kapitalini rivojlantirishga muhim omil sifatida urg'u bergan. Biroq bu tadqiqotlar mamlakatimizda ta'lim turizmi xizmatlari taklifini oshirishda

⁴ Лунин Э. А. Совершенствование управления образовательным туризмом в РФ: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук (08.00.05); Санкт-Петербург, 2009. С-38.; Зорин И. В., Квартальнов В. А. Энциклопедия туризма: Справочник. – М.: Финансы и статистика, 2003. 33 стр.; Лебедев А. Р. Образовательный туризм как экономическая категория. Современная экономика: проблемы, тенденции, перспективы. - 2012. - № 6. - С. 5.; Соломин В.П., Погодина В.Л. "Современное состояние и перспективы развития образовательного туризма в России" Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена, vol. 8, № 30, 2007, стр. 96-112.

⁵ Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент: Дарслик. — Тошкент: Ўқитувчи, 2001 й. –75-77 б.; Пардаев М.К., Атабаев Р. Туристтик ресурсларни таҳлил қилиш ва баҳолаш. - Самарқанд: СамИСИ, 2006. - 137 б; Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S.. Turizm: nazariya va amaliyot. –Т.: Fan va texnologiya, 2018, - 400 б.; N.K.Yo'ldoshev, G.E.Zaxidov. Menejment: o'quv qo'llanma. –Т.: O'zbekiston milliy faylasuflari jamiyati, 2018. – 392 б.; А.А.Эштаев. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси. (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида) Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -С.: СамИСИ, 2019. – 246 б.; Хамидов О.Х. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришни бошқариш механизмини такомиллаштириш. и.ф.д. диссертация автореферати. - Самарқанд, 2017.; Б.Н.Наврўз-зода. Трехуровневая модель компетентностного обучения специалистов сферы туризма и гостеприимства.// Актуальные проблемы развития туризма.- Москва: 2019.– стр. 608-613; Ҳамроев Ҳ.Р. Мамлакатларнинг туристик имкониятларини аниқлаш кўрсаткичлари таҳлили // “Ўзбекистонни топ ўн туристик ҳудудлар қаторига киритиш истиқболлари: барқарор ривожланиш имкониятлари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман материаллари тўплами, Бухоро, 2020, 23-28 бб; Сафаров Б.Ш. Миллий туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик-услубий асосларини такомиллаштириш. и.ф.д. диссертация автореферати. - Самарқанд, 2016. – 78 б.; Асланова Д.Х. Пўлатов М. Туризм соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар самараси. // Туризм хизматлари ва сервисини ривожлантиришнинг халқаро илғор тажрибаси ва уни Ўзбекистонда қўллаш масалалари. – Самарқанд: ХИАА (I-қисм), 2018. Б-153-157; Н.С.Ибрагимов. Туристтик ҳудуд барқарор рақобатбардошлигига эришишнинг илмий асослари). DSc диссертация автореферати – Самарқанд: 2021, Рўзиёв С.С. Ўзбекистон маданий туризм бозори ва унинг истиқболлари. и.ф.н. диссертация автореферати, Тошкент-2009. Алимova М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида). Докторлик диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2017. – 96 б.; Мирзаев А.Т. Ўзбекистонда туристик-рекреация фаолиятини бошқариш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc.) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Т.: ТДИУ. 2021. – 254-б.; Ibragimova M.I. O'zbekistonda ta'lim turizmi xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - Samarqand, 2022-y. - 163 б.; Очилова Ҳ.Ф. Анализ потребности индустрии туризма в квалифицированных кадрах. Economics and Innovative technologies, 11 (4), 2023, стр 396-406.

innovatsion usullarni qo‘llash orqali unga ta’sir etuvchi bevosita omil sifatida ta’lim sohasini xalqarolashtirish va sifatini oshirish kabi masalalar maxsus tadqiqot obyekti sifatida tizimli tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq П3-20170923100 “Mintaqani kompleks rivojlantirishda turizm salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llari” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekistonda ta’lim turizmini samarali rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini asoslash bo‘yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ta’lim turizmining mohiyati, nazariy va konseptual asoslarini izohlash orqali “ta’lim turizmi” tushunchasiga muallif talqinidagi takomillashgan ta’rifni ishlab chiqish;

ta’lim turizmining maqsad va vazifalari tasniflanib, ta’lim turizmi xizmatlarini ko‘rsatish tamoyillarini takomillashtirish;

ta’lim turizmi xizmatlarini shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilib, uning rivojlanish bosqichlari evolyutsiyasini tizimli ifodalash;

xalqaro ta’lim turizmi bozori tahlilini amalga oshirib, uning auditoriyasini kengaytirishda xalqaro ta’lim dasturlarida ishtirok etish yo‘nalishlarini tasniflash;

O‘zbekiston turizmida ta’lim turizmi xizmatlarining joriy holati tahlilini amalga oshirish;

ta’lim turizmiga ta’sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash orqali ta’lim turistlari oqimida eng ko‘p ahamiyatga ega bo‘lgan omilni aniqlash hamda prognozlash parametrlarini ishlab chiqish;

O‘zbekiston hududida turizmning muhim drayveri sifatida ta’lim turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

oliy ta’lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish orqali ta’lim turizmi imkoniyatlarini kengaytirish imkoniyatlarini tadqiq etish;

O‘zbekistonda ta’limning xalqarolashish darajasini oshirish asosida ta’lim turizmi salohiyatini yuksaltirish bo‘yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib O‘zbekiston Respublikasidagi ta’lim muassasalari va turizm xizmatlarini taklif etuvchi subyektlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida ta’lim turizmini rivojlantirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tanlab olingan.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertatsiya ishida statistik tahlil, ilmiy abstraksiya, taqqoslash, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlash, anketa-so‘rovnoma usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “ta’lim turizmi” tushunchasi iste’molchilarning xizmatni taklif etuvchilardan ma’lumot, bilim, mahorat va ko‘nikmaga ega bo‘lish maqsadidagi turistik bozor talabi omillariga ustuvorlik berishi asosida takomillashtirilgan;

jahon ta’lim turizmi ko‘lamini baholash uslubiyotini takomillashtirishda Top-1000 universitetlar reytingiga kirishda internationalization, internship, integration,

informatization, intelligence, innovative, investment omillariga asoslanuvchi “7 I” tamoyillar tizimiga ustuvorlik berish taklifi asoslangan;

ta’lim turizmi xizmatlarini rivojlantirishda iste’molchi nuqtai nazaridan maqbul omillar sifatida tizimlilik, resurslardan foydalanish salohiyati, ko‘p darajalilik, fanlararo aloqadorlik, madaniyatlararo munosabatlar, pedagogik kompetentlik, mijozga yo‘naltirilganlik, mahoratlik, vaqtning cheklanganligi, raqamlashtirilganlik, ko‘p tillilik, innovasion yondashuv, umumiy sifat menejmenti, davomiylik omillarining integrasiyasiga asoslanuvchi “SUSTAINABILITY” tizimi asoslangan;

O‘zbekistonda ta’lim turizmi bo‘yicha tashrif buyuruvchi talabalar soni o‘zgarishiga inflyasiya darajasi, Top-1000 talikka kiruvchi universitetlar soni, o‘rtacha o‘qish shartnoma to‘lovi, talaba xavfsizlik koeffitsiyenti va yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga hajmining ta’sirini baholash asosida 2028-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Ta’lim turizmi” tushunchasini uslubiy yondashuvga ko‘ra mukammallashgan tasnifi asoslangan;

zamonaviy xizmatlarga talab barqarorligini ta’minlashda ta’lim turizmi xizmatlari tamoyillarining “SUSTAINABILITY” tizimi taklif etilgan;

ta’lim turistlari oqimini oshirishda xalqaro reytinglarda Top-1000 universitetlar qatoriga kirishning “7 I” tamoyillar tizimi taklif etilgan;

Birodarlashgan shaharlar butunjahon turizm uyushmasi doirasida turizmni rivojlantirishning yo‘l xaritasi ishlab chiqilgan;

kiruvchi ta’lim turistlar oqimini oshirishda muhim omil sifatida pedagoglarning kasbiy savodxonligiga oid talablar asoslangan hamda mos ravishda “ta’limning xalqarolashuvida OTM, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqalar sxemasi” yaratilgan;

O‘zbekistonda ta’lim turizmi oqimini oshirish yo‘nalishlari ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO), Turizm va sayohatlar bo‘yicha jahon kengashi (WTTC), O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, Oliy ta’lim fan va innovasiyalar vazirligining rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ishda keltirilgan xulosa va takliflar tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hududlarda ta’lim turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalardan foydalanish mumkinligi, ta’lim hamda turizm sohalarini yanada takomillashtirish asosida ta’lim turizmi xizmatlariga xalqaro va milliy ko‘lamdagi talabni oshirishning qo‘shimcha imkoniyatlari tadqiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo‘mitasi hamda Oliy ta’lim fan va innovasiyalar vazirligi tasarrufidagi tuzilmalar faoliyatida, sohani rivojlantirish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqishda, oliy o‘quv yurtlarida

sohaga oid o'quv adabiyotlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda ta'lim turizmini samarali rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "ta'lim turizmi" tushunchasi iste'molchilarning xizmatni taklif etuvchilardan ma'lumot, bilim, mahorat va ko'nikmaga ega bo'lish maqsadidagi turistik bozor talabi omillariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilganlik taklifidan "Turizmologiya" darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 03-fevraldagi 60-sonli buyrug'i, ro'yxatga olish raqami 60-1 sonli guvohnoma);

Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ta'lim turizmini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini tizimli tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha talabalarda nazariy bilim, amaliy ko'nikmalar hosil qilishga erishish imkoni yaratilgan. Tadqiqot ishi natijalari "Turizmologiya" fani mazmunini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan;

jahon ta'lim turizmi ko'lamini baholash uslubiyotini takomillashtirishda Top-1000 universitetlar reytingiga kirishda internationalization, internship, integration, informatization, intellegence, innovative, investment omillariga asoslanuvchi "7 I" tamoyillariga ustuvorlik berish taklifidan oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari eksportini oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 07-iyundagi 4/17-4/4-06/186-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta'lim muassasalarining jozibadorligini oshirish, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish, ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish ko'rsatkichlarini oshirish imkonini bergan;

ta'lim turizmi xizmatlarini rivojlantirishda iste'molchi nuqtai nazaridan maqbul omillar sifatida tizimlilik, resurslardan foydalanish salohiyati, ko'p darajalilik, fanlararo aloqadorlik, madaniyatlararo munosabatlar, pedagogik kompetentlik, mijozga yo'naltirilganlik, mahoratlilik, vaqtning cheklanganligi, raqamlashtirilganlik, ko'p tillilik, innovatsion yondashuv, umumiy sifat menejmenti, davomiylik omillarining integratsiyasiga asoslanuvchi "SUSTAINABILITY" tizimi asoslangan taklifidan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan "Romitan va Kogon tumanlarining turistik salohiyatini oshirish bo'yicha 2024-yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 12-dekabrda 03-12-17-9124-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Kogon, Romitan, G'ijduvon, Vobkent tumanlari hamda Buxoro shahrining "tashrif qog'ozini"ni ishlab chiqish va targ'ibotini amalga oshirish imkoni yaratilgan.

O'zbekistonda ta'lim turizmi bo'yicha tashrif buyuruvchi talabalar soni o'zgarishiga inflyatsiya darajasi, Top-1000 talikka kiruvchi universitetlar soni, o'rtacha shartnoma to'lovi, talaba xavfsizlik koeffitsiyenti va yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga hajmining ta'sirini baholash asosida 2028-yilga qadar prognoz

ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan "O'zbekiston-2030" strategiyasining barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishi bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan Amaliy tadbirlar rejasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 12-dekabrda 03-12-17-9124-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ta'lim turizmi eksporti hajmi 2024-2028 yillar davomida yillik o'rtacha o'sishi 8,5 foiz diapazonga teng bo'lgan maqsadli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, ilmiy jurnallarda jami 7 ta, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida 6 ta, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikamizda fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy ishning yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliyotga joriy qilinishi ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ta'lim turizmining shakllanish bosqichlari, nazariy va metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida ta'lim turizmining nazariy xususiyatlariga oid ilmiy izlanishlar orqali ta'lim turizmi xizmatlarining mohiyati, konseptual asoslari, uning vazifalari va prinsiplari hamda tarixiy nuqtai nazardan ushbu xizmatlarning shakllanish bosqichlari, ta'lim turizmi xizmatlari bo'yicha yetakchi davlatlar tajribasi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi.

Bugungi kunda iqtisodiyotga oid atamalar, kategoriyalar, tushunchalar, ibora va so'z birikmalari nihoyatda ko'pchilikni tashkil etadi. Bu esa, o'z navbatida ta'lim turizmi tushunchasiga ham izohlar keltirish ehtiyojini shakllantiradi. Tadqiqot jarayonida ta'lim turizmi tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari o'rganilib, mavjud manbalarda unga berilgan ilmiy ta'riflar mohiyati to'la yoritilmaganligi aniqlandi. Xorijiy va mahalliy mualliflarning mavjud barcha ta'riflarini tahlil qilgan holda "ta'lim turizmi" tushunchasi o'ziga xos xususiyatlarga ega deb hisoblaymiz (1-jadval).

Bizning fikrimizcha, ta'lim turizmi – ilm-fan, tarix, madaniyat, sport va boshqa sohalarda ma'lumot, bilim, mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lish maqsadida bir yilgacha bo'lgan muddatda mamlakat hududida yoki tashqarisida haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmaslik sharti bilan amalga oshiriladigan turizm shakli bo'lib,

unda obyekt bo'yicha ma'lumot mutaxassis yoki raqamli texnologiyalar vositasida taqdim etiladi.

1-jadval

Ta'lim turizmi tushunchasining ta'riflari va yondashuvi⁶

T/r	Muallif	Ta'rif	Yondashuv
1.	Butunjahon Turizm Tashkiloti	Ta'lim turizmi o'quv jarayonida ishtirok etish orqali o'z-o'zini takomillashtirish, intellektual o'sish va turli ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq sayohatlarga insonlarni rag'batlantirish kabi turizmning har xil turlarini qamrab oluvchi turizm shaklidir.	Dasturiy va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan
2.	Solomin V.P., Pogodina V.L.	Ta'lim turizmi – joriy ta'lim dasturlari doirasida ta'lim muassasalari tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish maqsadlariga erishish uchun amalga oshiriladigan o'quv sayohatlar tizimi.	Dasturiyga mo'ljallangan
3.	Ritchie B.W.	Ta'lim turizmi – bu asosiy yoki ikkinchi darajali maqsadi ta'lim va tahsil olish bo'lgan ekskursant yoki tunab qoluvchi sayyohlarning faoliyatidir.	Ehtiyojga yo'naltirilgan
4.	Zorin I.V., Kvartalnov V.A.	Ta'lim turizmi – turistik sayohatlar majmuasi, turistlarni ta'lim olish maqsadi realizatsiyasi, ularning biror obyektga qiziqishini hamda narsa, hodisalarni o'rganishga bo'lgan boshqa ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan ekskursiyalar majmuasi, turistik sayohatlar kompleksidir.	Ehtiyojga yo'naltirilgan
5.	Lebedev A.R.	Ta'lim turizmi – xizmatlari ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol bosqichlaridan iborat iqtisodiy munosabatlarni milliy hamda xalqaro ko'lamda o'z ichiga oladi.	Iqtisodiyotga yo'naltirilgan
6.	Tuxliyev N., Abdullayeva T.	Ta'lim turizmi – bu turistik sayohat bo'lib, unda turist dam olish bilan ta'limni birlashtiradi.	Amaliy faoliyatga yo'naltirilgan
7.	Ibragimova M.I.	Ta'lim turizmi – bu kishilarning doimiy yashash joyidan bilim olish yoki o'rgatish maqsadlarida mamlakat hududida yoki xorijiy mamlakatda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda dastur asosida bir yilgacha bo'lgan vaqt davomida sayohat qilish faoliyatidir.	Ijtimoiy-iqtisodiy, dasturiy va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan
8.	Maxmudova N.U. ⁷	Ta'lim turizmi – ilm-fan, tarix, madaniyat, sport va boshqa sohalarida ma'lumot, bilim, mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lish maqsadida bir yilgacha bo'lgan muddatda mamlakat hududida yoki tashqarisida haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmaslik sharti bilan amalga oshiriladigan turizm shakli bo'lib, unda obyekt bo'yicha ma'lumot mutaxassis yoki raqamli texnologiyalar vositasida taqdim etiladi.	Ijtimoiy-iqtisodiy, ehtiyoj va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan

Keltirilgan ushbu ta'rifning boshqa ta'riflardan asosiy farqi ta'lim turizmiga xos bo'lgan xususiyatlar kengroq ko'lamda qamrab olinganligi hamda bugungi tendensiyalardan kelib chiqqan holda xizmatni taqdim etishda raqamli

⁶ Muallif tomonidan xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili asosida tuzilgan.

⁷ Muallif tomonidan taklif etilgan ta'rif.

texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ham nazarda tutishi bilan ajralib turadi. Mazkur ta'rif ma'lumotning raqamli texnologiyalar vositasida taqdim etilishi onlayn platformalar, virtual reallik moslamalari, 3D tasvirlar, QR-kodli ma'lumotlar kabi zamonaviy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim bilim berish, kishini hayotga tayyorlash, turli yo'nalishlarda dunyoqarashini kengaytirish hamda tegishli malaka, ko'nikmalar shakllantirish jarayoni sanaladi. Ushbu jarayonda esa ishonchli manbalardan olingan axborot va ma'lumotlar asosiy vosita hisoblanadi. Shu maqsadda biz keltirgan ta'rifda "ma'lumot mutaxassis yoki raqamli texnologiyalar vositasida" berilishi ta'kidlanib, globallashuv davri xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mos xizmatlar taklifi nazarda tutilgan.

Ta'lim turizmi xizmatlari turistik kategoriya sifatida o'z tamoyil, funktsiya va vazifalariga egaligini inobatga olgan holda bilim, malakaga ega bo'lish maqsadidagi talabalar xalqaro ta'lim turizmi bozorining muhim segmenti hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, xorijiy talabalarning xalqaro ko'lamdagi ko'rsatkichi 2027-yilga kelib 300 mln. nafardan oshishi kutilmoqda.⁸

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida, ta'lim turizmi xizmatlarini ko'rsatishda "SUSTAINABILITY (Barqarorlik)" tamoyillar tizimi ishlab chiqildi. Zamonaviy xizmatlarga talab barqarorligini ta'minlashda ta'lim turizmi xizmatlari tamoyillarining taklif etilayotgan tizimi alohida ahamiyatli sanalib, unda ta'lim turizmi xizmatlarining tizimliliigi, ularni taklif qilishda information texnologiyalardan foydalanish ko'lamini oshganligi, madaniyatlararo xususiyatga egaligi, raqamlashtirilganligi, doimiy ravishda sifat menejmenti yuritilishi kabi omillar inobatga olingan (1-rasm).

Fikrimizcha, yuqorida sanab o'tilgan barcha xizmatlarni "zamonaviy xizmat"lar sifatida ta'riflash mumkin va ayni paytda ularga talab yuqoriligi kuzatilmoqda. Informatsion va raqamli texnologiyalar asrida tegishli bilim hamda til, boshqaruv va kasbiy savodxonlikka ega mutaxassis o'z xizmatlarini innovatsion yondashgan holda ko'rsatishi zarurdir. Zamonaviy xizmatlarga talab barqarorligini ta'minlashda yuqorida taklif etilgan ta'lim turizmi xizmatlari tamoyillarining "SUSTAINABILITY" tizimi maqsadga muvofiq sanalib, aynan shu tamoyillar asosida xizmatlar shakllantirilsa, mijozlar ishonchini oshirish hamda ularni doimiy mijozga aylantirish mumkin.

Sohaga oid adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, turizmning barqaror rivojlanishi tamoyillari orasida mutaxassislar asosan ekologik barqarorlik, ijtimoiy va madaniy barqarorlik hamda iqtisodiy barqarorlikni sanab o'tishadi. Ushbu tamoyillar ta'lim turizmi xizmatlari uchun ham xos ekanligi taklif etilayotgan "SUSTAINABILITY" tizimining asosli ekanligini bildiradi. Ushbu tamoyillar tizimi ta'lim turizmi xizmatlari barqarorligi tushunchasini yanada kengaytiradi.

Tadqiqotimiz natijasi shuni ko'rsatdiki, ta'lim turizmi xizmatlarining "SUSTAINABILITY" tizimi asosida taklif etilishini quyidagicha izohlash va nazariy jihatdan asoslash mumkin:

Birinchidan, xizmatlarning tizimli ravishda tashkil qilinishi orqali uzluksizlik va davomiylik ta'minlanadi;

Ikkinchidan, xizmat ko'rsatiladigan hududdagi ekologik vaziyatga zarar

⁸ UNESCO Institute for Statistics. (2018). Global Flow of Tertiary-Level Students. <http://uis.unesco.org/en/uis-student-flow>.


yetkazilmaydi, tabiiy meros va bilogik xilma-xillik saqlanib qoladi;

Uchinchidan, tashrif buyuriladigan hudud va jamiyatlarning an'analari, urf-odatları, madaniy meroslariga salbiy ta'sir ko'rsatilmaydi;

To'rtinchidan, hududda iqtisodiy jarayonlar samaradorligi oshadi, bu o'z navbatida yangi turmahsulot va xizmatlarning paydo bo'lishiga yo'l ochadi;

Beshinchidan, raqamlashtirish va innovatsion yondashuvlar natijasida resurslar isrofi kamaytiriladi, yangi turizm xizmatlari paydo bo'ladi;

Oltinchidan, madaniyatlararo totuvlik, yaxshi qo'shnichilik aloqalariga ijobiy tas'ir ko'rsatiladi, xalq diplomatiyasi rivojlanadi.



1-rasm. Ta'lim turizmi xizmatlari tamoyillarining SUSTAINABILITY (Barqarorlik) tizimi ⁹

Demak, ta'lim turizmi xizmatlarining SUSTAINABILITY tizimi asosida taklif qilinishi turistlarning joylashishi va xizmatlarni iste'mol qilishlari uchun zarur hamda zamonaviy shart-sharoitlar yaratish qatorida, turistik hududda turizmning barqaror rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.


Xalqaro tajriba shuni ko'rsatdiki, yillar davomida soha tadqiqotchilari sayohat motivatsiyasiga sababchi o'zgaruvchan omillarni amaliy tarzda o'rganish natijasida turistlar tomonidan qabul qilingan qarorlar ularning sayohatlaridagi xatti-harakatlarida aks etadi va turizm sanoatini rivojlantirish uchun juda muhim sanaladi deb hisoblashadi. Bizningcha, ta'lim turizmi xizmatlari paydo bo'lish, shakllanish, rivojlanish, turg'unlik, globallashtirish bosqichlari asosida shakllangan va rivojlanish evolyutsiyasi yo'lini bosib o'tgan.

Sayohat motivatsiyasining dinamik tabiati ushbu sohada keng ko'lamlı tadqiqotlarga olib borilishiga turtki bo'ldi. Turistlar tomonidan qabul qilingan qarorlar

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ularning sayohatlaridagi xatti-harakatlarida namoyon bo'lishi turizm sanoatini rivojlantirish uchun juda muhim sanaladi.

Umuman olganda, ta'lim turizmining shakllanish davri ilm-fan, ta'lim xizmatlari shakllanishi, ravnaq topishi bilan bevosita bog'liq tarixiy jarayonlarda aks etadi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, ta'lim turizmi xizmatlarining shakllanish va rivojlanish evolyutsiyasini besh bosqichga bo'lib tavsifladik va ta'lim turizmi xizmatlari evolyutsiyasiga ta'sir etgan omillar hamda davriyligini jarayonlar ketma-ketligida jadvalda ifodalab, har bir omilni alohida izohlagan holda davriylik nuqtai nazaridan guruhlashni maqsadga muvofiq deb topdik (2-rasm).



2-rasm. Ta'lim turizmi evolyutsiyasiga ta'sir etgan omillar va davriyligi¹⁰

Ta'lim turizmi xizmatlari sektorini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish doirasida dunyodagi muvaffaqiyatli davlatlar sifatida AQSh, Braziliya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Germaniya va Fransiya, Rossiya davlatlari tajribasi o'rganildi. Xulosa qilib aytish mumkinki, turli davlatlar ta'lim hamda turizm sohasidagi faoliyatlarida ta'lim turizmini rivojlantirishni strategik maqsad sifatida belgilamoqda. Lekin bu maqsadga erishishda tegishli infratuzilmalar holati talabga javob darajasida bo'lishi zarur. Yuqoridagi davlatlar tahlilidan hududlar u yoki bu ilmiy faoliyatlarda (sohalarda) ustunlikka egaligi ma'lum bo'ladi. Shuningdek, mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va siyosiy barqarorligi ham ta'lim turizmi xizmatlari ko'rsatkichlarining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Dissertasiyaning **“Hududlarda ta'lim turizmining rivojlanish holati va ko'rsatkichlari tahlili”** deb nomlangan 2-bobida ta'lim turizmi xizmatlari bozorining xalqaro ko'lamini, asosiy ko'rsatkichlari, O'zbekistonda ta'lim turizmi xizmatlarining joriy holati, hududlar kesimida ta'lim turizmining ko'rsatkichlari tahlil qilingan hamda

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

unga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash haqida so'z borgan.

Aksariyat Yevropa davlatlarida ta'lim turizmining ijtimoiy shakli sezilarli ahamiyatga ega, ya'ni ular turli grant va stipendiya dasturlari orqali amalga oshiriladi. Shu o'rinda Erasmus hamda Komenius ta'lim dasturlari alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqorida sanab o'tilgan ta'lim dasturlari auditoriyasi o'suvchi xarakterga ega bo'lib, hozirga qadar 4,5 mln ishtirokchiga yetgan. Bu esa Yevropa Ittifoqi hamda boshqa davlatlarda o'quvchi, talaba va o'qituvchilar mobilligini oshirish orqali ta'lim turizmi xizmatlari takomillashishi va oshishiga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, zamonaviy jahon ta'lim turizmi bozorida xalqaro ta'limga talabning oshish fenomeni alohida ta'sirga ega. Ya'ni, talabalarning xalqaro mobillikka talabining o'sishi ta'lim turizmi bozoriga to'g'ri proporsional ta'sir etadi va mos ravishda iqtisodiy tushumlarni oshiradi. Ta'lim, turizm hamda zarur infratuzilmalar integratsiyasi global ta'lim turizmi bozorining rivojiga mos ravishda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda sezilarli ijobiy hissaga ega bo'ladi.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, 2023-2024 o'quv yilida mamlakatimizdagi davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olgan xorijiy talabalar soni 11051 nafarni tashkil etib, ular asosan Toshkent shahri (3863 nafar, 35,0 %), Samarqand viloyati (2435 nafar, 22,0 %), Buxoro viloyati (1311 nafar, 11,9 %), Xorazm viloyati (1201 nafar, 10,9 %) Andijon viloyati (866 nafar, 7,8 %) hamda Farg'ona viloyati (828 nafar, 7,5 %) oliy ta'lim muassasalarida o'qishmoqda. Qolgan viloyatlar hissasiga esa 547 nafar talaba (4,9 %) to'g'ri kelmoqda.

Xususan, tibbiyot yo'nalishi xorijiy talabalar jalb qilishda yetakchi sanalib, tibbiyot ta'lim dasturlarining aksariyatida Butunjahon tibbiy ta'lim federatsiyasi WFME (World Federation of Medical Education)ning xalqaro akkreditatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tganlik sertifikatlarining mavjudligi asosiy jozibadorlikni ta'minlaydi.

Xorijiy talabalarning fuqaroligi tahlil qilinganida eng ko'p talaba Hindiston (6112 nafar, 55,3 %), Pokiston (1248 nafar, 11,3 %), Turkmaniston (852 nafar, 7,7 %), Rossiya (790 nafar, 7,1 %) hamda Qozog'iston (558 nafar, 5,0 %) fuqarolari ekanligi kuzatiladi (3-rasm).


Talabalarning 10650 nafari (96,4 %) bakalavriat yo'nalishlarida, 400 nafari (3,6 %) magistratura mutaxassisligi hamda klinik ordinaturada ta'lim oladi.

Shu jumladan, bakalavriat bosqichidagi talabalarning 3130 nafari (29,4 %) 1-kursda, 1998 nafari (18,8 %) 2-kursda, 1954 nafari (18,3 %) 3-kursda, 1534 nafari (14,4 %) 4-kursda, 1284 nafari (12,1 %) 5-kursda, 751 nafari (7,0 %) 6-kursda ta'lim oldi. Talabalar sonining kurslar bo'yicha dinamikasi ular sonining oshib borayotganligini ko'rsatadi.

Magistratura va klinik ordinaturada ham ushbu ijobiy dinamika kuzatilib, ularning 313 nafari (78,3 %) 1-kursda, 84 nafari (21 %) 2-kursda, 3 nafari esa (0,7 %) 3-kursda ta'lim oldi. Xorijiy talabalarning 4897 nafari (44,3 %) ayollar, 6154 nafari (55,7 %) erkaklar hissasiga to'g'ri keladi.

Bilim sohalari bo'yicha tahlil natijalari xorijliklar uchun "Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot" sohasi eng ustuvor ekanligi (78,75 %) ko'rinadi. Keyingi o'rinlarda "Ta'lim" (4,14 %), "Biznes, boshqaruv va huquq" (3,93 %), "San'at va gumanitar fanlar" (3,61 %) sohalari joy egallagan. Qolgan 6 ta bilim sohasi hissasiga atigi 9,32

% talaba to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, 28 nafar talaba (0,25 %) Foundation tayyorlov bosqichida ta'lim olganligini kuzatish mumkin.



3-rasm. O'zbekistonda tahsil olayotgan xorijiy talabalarning fuqaroligi bo'yicha taqsimoti¹¹

Mamlakatimizda ham ta'lim turizmini rivojlantirishda uning asosiy segmenti bo'lgan talaba hamda o'qituvchilar mobilligini, ularning akademik mobilligini yo'lga qo'yish, buning uchun yetarli sharoitlarni yaratish zarur. Jumladan, ta'lim sifatini ta'minlashda asosiy e'tibor Yevropa, Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik qilish, bunda mamlakatlararo solishtira olinadigan baholash me'yorlari va metodologiyasini o'rganishga qaratiladi. O'quv rejalarini ishlab chiqish, institutsional hamkorlik, mobillik shakllari, qo'shma ta'lim dasturlari, ilmiy tadqiqotlarni olib borishni qo'llab quvvatlash kabi yo'nalishlarda ta'lim turizmini tashkil etish ustuvorlikka ega.

Tadqiqot jarayonida O'zbekistonda ta'lim turizmi joriy holatini o'rganish maqsadida 2023-yil aprel oyida Googleda (Google forms) anketa so'rovnomasi o'tkazildi¹². Respondentlar audotoriyasi sifatida O'zbekistonda tahsil olayotgan xorijiy bakalavr talabalar, magistrlar hamda ilmiy tadqiqotchilardan jami 144 nafar kishi ishtirok etishdi. Ular Toshkent, Samarqand, Urganch hamda Buxoro oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi yoki ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi xorijlik talaba, stajyor-tadqiqotchi, volontyorlar hisoblanadi. Respondentlarning o'rtacha yoshi 21-22 yoshni tashkil etib, aksariyatini Hindiston (50 %), Pokiston (14 %) fuqarolari bo'lgan talaba, magistr hamda ilmiy tadqiqotchilar tashkil etishdi.

O'zbekistonda ta'lim turizmi holatini o'rganish bo'yicha so'rovnoma javoblari asosida ta'lim turistlarining joriy holatdagi segmentasiyasi, O'zbekiston hududlariga sayyohlarni jalb qiluvchi mezonlarni aniqlash, sayyohlarning O'zbekiston bo'yab ta'lim turizmini amalga oshirishda to'sqinlik qiladigan sabablarni o'rganish rejalashtirildi.

So'rovnomaning birinchi qismida turist xususiyati hamda ta'lim yo'nalishlari va sohalariga oid umumiy savollar, ikkinchi qismida esa respondentlardan O'zbekistonda ta'lim turizmi xizmatlari taklifi va mavjud talabni o'rganishga yo'naltirilgan savollar shakllantirgan. Mos ravishda dastlabki savollar orqali respondentlarning aksariyati 16-

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida

¹² <https://docs.google.com/forms/d/14c2lBwcbdhObEuCEX8OBZg-ljDFr0rcLjg3PMfj2nx8/edit>

25 yosh atrofidagi (80,6%) yoshlar, 16,7 % 26-40 yoshdagilar hamda 2,8 % 41-55 yoshdagilar ekanligi aniqlandi. Keyingi savolda ta'lim turizmi hududi sifatida O'zbekistonni tanlashga turtki bo'lgan omillar keltirilib, yetti omildan asosiy uchtasida yashash xarajatlari pastligi, hayot xavfsizligi, ta'lim sifati kabilar yetakchilik qilgan (4-rasm).



4-rasm. O'zbekiston ta'lim turizmini amalga oshirishda xizmat qiluvchi omillar tahlili¹³

Tahlillar ko'rsatishicha, so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning aksariyati (70,1 %) o'z mablag'lari, 29,2 % turli akademik almashinuv dasturlar doirasida talabalar uchun mo'ljallangan stipendiyalar hisobidan kelishgan.

Amalga oshirilgan izlanishlar natijasida O'zbekiston ta'lim turizmi jozibadorligini ta'lim beruvchilarning til (ingliz tili) savodxonligini va kasbiy savodxonligi oshirish, m'muriyat bilan bevosita aloqa qilish imkoniyatini shakllantirish, O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarning global ta'lim muhitini yaratishga yo'naltirilgan jarayonlarni shakllantirish, ta'lim turizmi infastrukturasini takomillashtirish, viza va ro'yxatdan o'tish jarayonini soddalashtirish, talabalar turar joylarida narxlarni pasaytirish, amaliyot muddati va jarayonini qayta ko'rib chiqish, haq to'lanadigan amaliyot yoki o'xshash faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyati yaratish kabi bir qator muammolarni hal etish orqali oshirish mumkin deb hisoblaymiz.

Shuni e'tirof etish lozimki, 50 ta davlatlar misolida ta'lim turizmi bo'yicha tashrif buyurgan turistlar sonini o'rganganimizda 7 ta rivojlangan davlatga ta'lim turizmi bo'yicha tashrif buyurgan turistlar ulushi 54,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, qolgan 43 ta davlatga ta'lim turizmi bo'yicha tashrif buyurgan turistlar ulushi 45,6 % ga teng bo'ldi. Bundan ko'rinadiki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim turizmining taraqqiy etishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish muhim hisoblanadi.

Darhaqiqat, ta'lim turizmi ishtirokchilari soniga ko'pgina omillar ta'sir qiladi. Statistik ma'lumotlar asosida jahon miqyosida ta'lim turizmiga ta'sir etuvchi omillarni hamda bu omillarning ta'lim turizmi ishtirokchilari soniga ta'sir darajasi aniqlandi. Buning uchun jahonning 50 ta davlati statistik ko'rsatkichlari tanlab olindi. Bular jumlasiga rivojlangan mamlakatlar, Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda Rossiya, Argentina, Polsha va boshqa mamlakatlar kiritildi. Lekin omillarning ko'pi o'zaro multikollinear bo'lgani sabab, inflatsiya, Top-1000 talikka kiruvchi universitetlar soni, o'rtacha shartnoma to'lovi, talaba xavfsizlik koeffitsiyenti, YaIMning aholi jon boshiga taqsimoti kabi ko'rsatkichlar tanlab olindi. Bu omillarning ta'lim turizmi bo'yicha tashrif buyuruvchi turistlar soniga ta'sir darajasini aniqlashda "panel data" dan

¹³ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi.

foydalanamiz. Bunda ko‘rsatkichlarni tanlab olishda $n=50$, $T=5$ statistik ma’lumotlar yig‘ilib, o‘rganib chiqildi.

To‘plangan statistik ma’lumotlar yordamida ko‘p omilli regressiya tenglamasi, “Fixed effect” va “Random effect” modellari tuzildi. Bu modellarning umumiy ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$\ln Y = \sum_{j=1}^{50} a_j z_{ij} + \beta_1 x_{it}^{(1)} + \beta_2 x_{it}^{(2)} + \beta_3 \ln x_{it}^{(3)} + \beta_4 x_{it}^{(4)} + \beta_5 \ln x_{it}^{(5)} + \varepsilon_{it}$$

Bunda Y – ta’lim turizmi bo‘yicha tashrif buyuruvchi turistlar soni, x_1 – inflatsiya, x_2 – Top-1000 talikka kiruvchi universitetlar soni, x_3 – o‘rtacha shartnoma to‘lovi, x_4 – talaba xavfsizlik koeffitsiyenti, x_5 – YAIMning aholi jon boshiga miqdori. Hamda $z_{ij} = 1$ (agar $i=j$) bo‘ladi, aks holda nolga teng.

50 ta davlatga tegishli statistik ma’lumotlar yordamida “panel data”ning “fixed effect” modelida aniqlangan O‘zbekiston uchun aniqlangan regressiya tenglamasi quyidagicha:

$$\ln Y = 6,72 + 0,012x_1 + 0,034x_2 - 0,33 \ln x_3 + 0,01x_4 + 0,53 \ln x_5 + \varepsilon$$

Bu regressiya tenglamasini quyidagi ko‘rinishga o‘tkazamiz:

$$Y = e^{6,72} \cdot e^{0,012x_1} \cdot e^{0,034x_2} \cdot x_3^{-0,33} \cdot e^{0,01x_4} \cdot x_5^{0,53}$$

Bu regressiya tenglamasidan ko‘rinadiki, inflatsiyaning bir birlikka ortishi logarifm tartibdagi me‘yorlashtirilgan ta’lim turizmi bo‘yicha tashrif buyuruvchi turistlar sonining 0,012 ga ortishiga, Top-1000 talikka kiruvchi universitetlar soni bir birlikka ortishi logarifm tartibdagi me‘yorlashtirilgan turistlar sonining 0,034 ga ortishiga, o‘rtacha shartnoma to‘lovi bir birlikka ortishi logarifm tartibdagi me‘yorlashtirilgan turistlar sonining 0,33 ga kamayishiga, talaba xavfsizlik koeffitsiyentining bir birlikka ortishi logarifm tartibdagi meyorlashtirilgan turistlar sonining 0,01 ga ortishiga, YAIMning aholi jon boshiga miqdorining bir birlikka ortishi logarifm tartibdagi meyorlashtirilgan turistlar sonining 0,53 ga ortishiga olib keladi.

Ta’lim turizmi bo‘yicha tashrif buyuruvchi turistlar sonini 2024-2028 yillar davomidagi prognoz natijalarini aniqlaymiz. Bu besh yillik prognoz natijasini aniqlashimiz uchun inflatsiya, Top-1000 talikka kiruvchi universitetlar soni, o‘rtacha shartnoma to‘lovi, talaba xavfsizlik koeffitsiyenti, yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning aholi jon boshiga miqdorining 2024-2028 yillar davomidagi prognoz natijalaridan foydalanamiz.

Muallif fikricha, mamlakatimizga nufuzli ta’lim tashkilotlari, jumladan Top-1000 talikka kiruvchi universitetlar hamda ularning filiallarini shakllantirish 2024-2028 yillarda ta’lim turistlari sonini prognoz qilingan ko‘rsatkichlarga yetkazishga xizmat qiladi. Oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash mamalakatimizda oliy ta’lim muassasalarini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytinglarining yuqori 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish nazarda tutilganligini inobatga olib, ayni paytda ushbu reytingga kiruvchi xorijiy oliy ta’lim muassasalar filiallarini tashkil etish taklif etiladi.


Ta'lim turizmi bo'yicha tashrif buyuruvchi turistlar soniga ta'sir etuvchi omillarning pronoz natijalari quyidagi jadvalga keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

Ta'lim turizmi oqimlariga ta'sir etuvchi faktorlarning 2024-2028-yillardagi prognoz natijalari¹⁴

Omillar	2024-yil	2025-yil	2026-yil	2027-yil	2028-yil
Inflatsiya (x1)	10	8	5	6	6
Top 1000 talikka kiruvchi universitetlar soni (x2)	2	3	5	8	10
O'rtacha o'qish shartnoma to'lovi (x3)	3200	3400	3400	3600	3800
Talaba xavfsizlik koeffitsiyenti (x4)	95	95	96	96	97
YaIMning aholi jon boshiga taqsimoti (x5)	2378,7	2591	2857,2	3212,3	3567,4
Ta'lim turizmi bo'yicha tashrif buyuruvchi talabalar soni (y)	11103	11502	12634	14785	16599

Ta'lim turizmi bo'yicha tashrif buyuruvchi turistlar soni bo'yicha aniqlangan prognoz natijalarini quyidagicha aks ettirish mumkin (5-rasm).



5-rasm. Ta'lim turizmi bo'yicha tashrif buyuradigan turistlar soni¹⁵

Yuqoridagi tahlildan ko'rinadiki, ta'lim turizmi bo'yicha tashrif buyuruvchi turistlar soni 2024-2028 yillar davomida o'sib boradi. Bu o'sishning o'rtacha qiymati 1,085 teng bo'lib, yillik o'rtacha o'sish natijasi 8,5% ga yetadi. Bu albatta ijobiy holat hisoblanadi.

Xususan, Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarida yetakchi oliy ta'lim muassasalarining filiallari faoliyatini barqarorligi hamda raqobatbardoshlik davrining uzoqligini inobatga olgan holda, O'zbekiston ham maqsadli "yo'nalish"dagi davlatlar qatoriga kirishi mumkin deb hisoblaymiz. Talabalarni qabul qiluvchilar ro'yxatida yetakchi o'rinlarni egallash maqsadida nufuzli yirik xalqaro ta'lim muassasalari filiallarini, ayniqsa dunyodagi Top-1000 reytinglaridagi OTMlar bilan hamkorlikni kengaytirish hamda ularning filiallarini tashkil qilish taklifini o'rinli deb hisoblaymiz. Shuningdek, hamkorlik alohida fakultetlar, yo'nalishlar yoki mutaxassisliklar doirasida ham shakllantirilishi mumkin.

Dissertasiyaning uchinchi bobi "**O'zbekiston hududida ta'lim turizmini samarali rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari**" deb nomlanib, unda O'zbekiston

¹⁴ Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.

¹⁵ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

hududlarida turizmning muhim drayveri sifatida ta'lim turizmini rivojlantirish, oliy ta'lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish orqali ta'lim turizmi imkoniyatlarini kengaytirish yo'nalishlari hamda O'zbekistonda ta'limning xalqarolashish darajasini oshirish asosida ta'lim turizmi salohiyatini yuksaltirish imkoniyatlari borasida fikrlar keltirilgan.

Ta'lim turizmi xizmatlarining taklifi mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yangi ish o'rinlarining yaratilishi, tegishli infrastrukturaning rivojlanishi, davlat byudjeti daromadlarining oshishi, madaniy meros obyektlarining saqlab qolinishi qatorida sayyohning ham ruhiy ham jismoniy holati tiklanishi, madaniy, tarixiy, ilmiy dunyoqarashining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yetakchi mamlakatlarda ta'lim turizmi dinamikasi turli omillarga, masalan, immigratsiya siyosatidagi o'zgarishlar, iqtisodiy rivojlanish, ta'lim sifati va boshqalarga bog'liqligini kuzatish mumkin. Umuman olganda, ta'lim turizmi ko'rsatkichlari AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada va Germaniyada ijobiy sur'atni saqlab qolishi ehtimoli katta, chunki bu mamlakatlarda butun dunyodan talabalar va mutaxassislarni jalb qiluvchi nufuzli universitetlar va dasturlar mavjud. Biroq, siyosiy vaziyatdagi o'zgarishlar, jumladan immigratsiya siyosati ta'lim turizmi tendensiyalariga sezilarli ta'sir qiladi. Onlayn ta'lim imkoniyatlarining kengayishi ushbu mamlakatlarda an'anaviy ta'lim dasturlariga bo'lgan talabga ham ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda ta'lim turizmi ko'rsatkichlarini tahlil qilishda xorijiy talabalar bilan bog'liq qismlarni o'rganib chiqish maqsadga muvofiq. Mamlakatimizga ta'lim turizmi maqsadida kelganlar soni 2023-yilda 16,8 ming kishini tashkil etib, shundan 11051 nafarni (65,8 %) xorijiy talabalar tashkil etgan. Xorijiy talabalarning mamlakatimizda ta'lim olishi bilan bog'liq tushumlarni hisoblashda ularning bevosita ta'lim olish bilan bog'liq xarajatlari qatorida viza va qayddan o'tish, turar joy, oziq-ovqat va boshqa xarajatlarini inobatga olish zarur.

Ushbu xarajatlarning aksariyati odatda yillik to'lov shaklida ifodalangani uchun yillik o'rtacha xarajatini hisoblash mumkin va ular shartli ravishda quyidagi shaklda ifodalanadi:

1. Shartnoma to'lovi yoki o'qish xarajatlari. Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida "Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot" sohasida yillik shartnoma to'lovlari o'rtacha 3500 AQSh dollari, "Biznes, boshqaruv va huquq" sohasida o'rtacha 1300 AQSh dollari, boshqa sohalarda esa 1100 AQSh dollari ekanligidan kelib chiqqan holda, xorijlik talabalarning 1 yillik shartnoma to'lovlari taxminan 33,2 mln AQSh dollarini, 1 nafar talabadan tushum esa o'rtacha 3004 AQSh dollarini tashkil etmoqda.

2. Viza (ro'yxatdan o'tish) xarajatlari. 2023-2024 o'quv yilida respublikamizda ta'lim olayotgan xorijlik talabalar 54 ta mamlakat fuqarosi bo'lib, ulardan 8 ta mamlakat fuqarolari uchun O'zbekistonga kirish va yashashda viza olmasdan, vaqtinchalik ro'yxatdan o'tish tartibi qo'llanadi. Bunday talabalar soni 1422 nafarni tashkil etib, 1 ta talaba uchun yillik ro'yxatdan o'tish xarajatlari 15 AQSh dollarga yaqin. 46 ta mamlakatdan kelgan 9629 nafar talaba 1 yilgacha bo'lgan muddatdagi talabalik vizasi uchun 250 AQSh dollari hamda ro'yxatdan o'tish uchun 200 AQSh dollariga yaqin mablag' sarflashgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu xarajatlar 1 yilda

jami 4,35 mln. AQSh dollariga teng. 1 nafar xorijiy talaba uchun viza (ro'yxatdan o'tish) xarajatlari o'rtacha 394 AQSh dollariga tengligi aniqlandi.

3. Turar joy xarajatlari. Taxminan 9 ming nafar talabaning talabalar turar joyida yashashi, 2 ming nafardan ortiq talabaning esa xususiy sektorda joylashganligidan kelib chiqqan holda jami xarajat taxmina 3,85 mln AQSh dollariga yaqin bo'lib, bir nafar xorijiy talabadan turar joy uchun yillik tushum o'rtacha 349 AQSh dollarini tashkil etadi.

4. Yashash xarajatlari. Oziq-ovqat, maishiy xizmat kabilarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun kunlik xarajatlar 10 oy uchun 19,89 mln. AQSh dollari hamda yillik o'rtacha 1800 AQSh dollariga tengligi aniqlandi.

5. Boshqa xarajatlar. Sport va madaniy tadbirlar uchun turli to'lovlar, qo'shimcha kurslar yoki til dasturlari, treninglarda ishtirok etish kabi to'lovlar ham hudud iqtisodiyotiga tushum sifatida qabul qilinib, ushbu xarajatlar umumiy 8,84 mln AQSh dollari va bir nafar xorijiy talabaga yillik o'rtacha 800 AQSh dollariga teng ekanligi aniqlandi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga umumiy tushum 10 oyda 70,13 mln. AQSh dollarini, 1 nafar talaba hisobidan tushum esa 6346 AQSh dollarini tashkil etadi. O'z ta'tilini O'zbekistonda o'tkazuvchi talabalardan tushum ushbu hisob-kitoblarga kiritilmagan.

Xususan, birgina 2023-yilning o'zida O'zbekistonga tashrif buyurgan 6,63 mln. xorijiy sayyohning 16,8 ming nafari (0,25 %) ta'lim turistlari, shu jumladan 11 051 nafari (0,17 %) xorijiy talabalar hissasiga to'g'ri kelgan. Shu yili turistik xizmatlar eksporti 2,143 mlrd AQSh dollariga teng bo'lib, xorijiy talabalar ta'lim olishidan tushum hajmi taxminan 70,13 mln. AQSh dollari ekanligi, ushbu ko'rsatkich jami turizm eksportida 3,27 % hissaga egaligini ko'rish mumkin. Demak, ta'lim turizmi hududlar iqtisodiyotiga turizmning boshqa turlariga nisbatan bir necha marotaba yuqori darajada tushum keltiruvchi manba bo'lib, ta'lim turizmi O'zbekiston turizmining muhim drayveri ekanligini o'z isbotini topmoqda.

Qishki va yozgi maktablar ishtirokchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga bog'liq ravishda turli xil shaklda bo'lishi mumkin. Quyida bunday maktablarning asosiy ko'rinishlari sanab o'tilgan:

1. Til kurslari ta'lim turizmining keng tarqalgan shakli bo'lib, mamlakatda ustuvorlikka ega til (davlat tili) yoki boshqa xorijiy tillar bo'yicha maxsus kurs xizmatlari taklifida namoyon bo'ladi. Bunday til kurslari odatda ko'zlangan oliy ta'lim ma'lumotiga erishishning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib xizmat qiladi, ya'ni ular uchun kreditlar hisoblanadi hamda tan olinadi.

2. Akademik dasturlar san'at, fan, biznes va texnologiya kabi yo'nalishlardagi ma'ruzalar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarorlarda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida oliy ta'lim muassasalari yoki ixtisoslashgan tashkilotlar (kasb-hunar maktablari, san'at maktabi va boshq.) tomonidan mos faoliyatlariga

tegishli mavzularda qishki va yozgi maktablar taklifini amalga oshirishi maqsadga muvofiq. Bunday maktablarda ta'lim turizmi xizmatlari tegishli faoliyat mutaxassislari tomonidan shakllantiriladi. Asosiy maqsad tibbiyot, san'at, menejment, filologiya kabi muayyan sohada yangi ko'nikmalar yoki qo'shimcha ta'lim olish imkoniyatini yaratishdir.

3. Madaniy dasturlar mahalliy madaniyat va tarix bilan tanishish uchun ekskursiyalar, mahorat darslari va madaniy tadbirlarda qatnashish imkonini beradi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-son qarori ilovasiga kiritish orqali amaliyotga joriy etilgan "Buxoro shahri bilan "birodar shaharlar" o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish va ulardan sayyohlarni jalb etish choralari ko'rish" vazifasiga mos ravishda turli tarixiy va madaniy tadbirlar, dasturlarda qishki va yozgi maktablar tashkil etilishi taklif etiladi.

Jumladan, Buxoro shahrining Kordova (Ispaniya), Malatya (Turkiya), Santa-Fe (AQSh), Loyan (Xitoy) kabi shaharlar bilan birodarlik aloqalari mavjud. Shuning bilan birga, birodarlashgan shaharlar o'rtasida mavjud aloqalar ma'qul darajada rivojlanmaganligini qayd etish zarur.


Ta'lim turizmi orqali xorijiy turistlar oqimini oshirishda turizmga ixtisoslashgan shaharlar, shuningdek ular bilan birodarlashgan shaharlar o'rtasida Birodarlashgan shaharlar butunjahon turizm uyushmasi (TCWTA) mexanizmlariga asoslangan akademik almashuvlar va maxsus turlar tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (6-rasm).

TCWTA 2018-yilda turli millatlar va madaniyatlar vakillarini birodarlashgan shaharlar konsepsiyasi asosida yaqinlashtirish, o'zaro institutsional hamkorlikni ham yo'lga qo'ygan holda turizm oqimlarini kengaytirish, bunda ta'lim va madaniy turizmga alohida e'tibor berish maqsadida tuzilgan uyushmadir. Uyushmaning birodarlashgan shaharlar o'rtasidagi munosabatlarni kengaytirish uchun bir qator platformalari va maxsus modellari mavjud. Ulardan foydalanish hududlararo turizm oqimlarining kengayishiga imkon yaratadi.

TCWTAGA a'zolik bosqichida hukumat, Turizm qo'mitasi, shahar va tuman hokimliklari qatorida turli tashabbuskor guruhlarining fikri ham muhim bo'lib, aqliy markazlar, oliy ta'lim muassasalari tahliliy faoliyatni olib borishlari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

TCWTAGA a'zolik doirasida ko'plab tadbirlarni amalga oshirish mumkin bo'lib, ular ko'rgazmalar, onlayn tadbirlar, turizm forumlari, madaniy tadbirlar, akademik turlar, talaba almashinuvlari, seminar va treninglar, mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi hamkorlik, festivallar kabi ko'plab shakllarda amalga oshiriladi.

Birodarlashgan shaharlar o'rtasidagi hamkorlikning barqaror davomiyligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda birodarlashgan shaharlar ta'lim muassasalari uchun talaba, o'qituvchi, o'quvchi va mutaxassislar akademik almashi tegishli maxsus kvotalar ajratilishi, yillik an'anaviy tadbirlar, biennalelar davomiyligini ta'minlash, yaratulgan ma'lumotlar bazalari, platformalarni boyitib borish, zarur hollarda masadli turizm uyushmalarini tuzish kabi faoliyat samarali bo'ladi.



6-rasm. Birodarlashgan shaharlar butunjahon turizm uyushmasi doirasida turizmni rivojlantirishning yo'l xaritasi¹⁶

¹⁶ Muallif ishlanmasi

TCWTAga a'zolik birodarlashgan shaharlar o'rtasida turizm oqimlarining ko'payishi, ta'lim turizmi ko'lamining kengayishi, hududlarga investitsiya kirib kelishi, infratuzilmaning rivojlanishi, turizm va ta'lim sohalari mutaxassislarining malakasi oshishi kabi real samarani olib keladi.

Ma'lumki, o'qituvchining kasbiy xorijiy til bilish xususiyati xorijiy talabalar va sayyohlarga dars berishda ta'lim sifati uchun katta ahamiyatga ega. Bu o'qituvchi va talabalar o'rtasida muloqot va o'zaro anglashga samarali ta'sir etadi, o'quv jarayoni sifatini oshiradi va talabalarni o'qishga yanada kengroq jalb etilishini ta'minlaydi. Chet tilini biladigan professor-o'qituvchilar turli xorijiy ilmiy adabiyot, ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlari hamda mos o'qitish usullarini qo'llash orqali dars jarayonini sifatli tashkil etish mahorati oshadi, bu esa o'z navbatida ta'lim xizmatlari sifatiga "to'g'ri proporsional" ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan muammo inson kapitali bilan bog'liq muammo sanalib, uni bartaraf etishning mantiqan ilmiy asoslangan mexanizmini shakllantirish zarur.

O'qituvchi va talaba o'rtasida esa ayni paytda dolzarb hisoblangan, ta'lim turizmiga bevosita ta'sir kuchiga ega bo'lgan sifatli ta'lim va uning natijasi - talaba tomonidan beriladigan teskari aloqa (feedback) juda muhimdir. Bu borada oliy ta'lim muassasalari o'qituvchi tanlovida va pedagog-xodimning tegishli ko'nikma, malakaga ega bo'lishiga mas'uliyat bilan yondashishi talab etiladi. Shu o'rinda, professor-o'qituvchiga xorijiy tilda dars o'tish huquqini berishda nafaqat til bilish sertifikat, balki kasbiy til bilish kompetensiyasini baholovchi sertifikat ham talab etilishi maqsadga muvofiq. Ushbu sertifikat OTFIV huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan sinovlar asosida berilishi tavsiya etiladi.

Dunyodagi nufuzli reytingda o'rin olgan yetakchi mamlakatlar oliy ta'lim muassasalari hamda mahalliy oliy ta'lim muassasalari faoliyatini taqqoslash, ilmiy adabiyotlar ma'lumotlarini tahlil qilish orqali ta'lim sohasi raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro ko'lamda ta'lim xizmatlari eksportini amalga oshirishda ingliz tilidagi so'zlarning bosh harflaridan shakllantirilgan "7 I" tamoyillar tizimiga e'tibor qaratish lozim deb topdik (7-rasm):

Birinchi, ta'limning xalqarolashuvi (Internationalization) globallashtirish sharoitida xalqaro aloqalarning kuchayishi, talabalar va o'qituvchilar almashinuvi, ta'lim dasturlarini jahon andozalari va tendensiyalariga moslashtirish demakdir.

Ikkinchi, amaliyot (Internship) oliy ta'limning xalqaro reytinglarida muhim o'rin tutadi, chunki ular talabalarining universitetda olgan bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llay olishidan dalolat beradi.

Uchinchi, oliy ta'limdagi integratsiya (Integration) ham xalqaro reytinglarda muhim o'rin tutadi. Bu universitetdagi turli fanlar va bo'limlar o'rtasidagi integratsiyani, shuningdek, mahalliy va xalqaro miqyosdagi boshqa ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi.


To'rtinchi, oliy ta'limda axborotlashtirish (Informatization) xalqaro reytinglarda muhim o'rin tutadi. O'quv jarayoniga va ilmiy izlanishlarga zamonaviy axborot texnologiyalarini faol joriy etayotgan universitetlar ko'pincha innovatsiyalar va ta'lim sifati bo'yicha yuqori baho oladilar.

Beshinchi, intellektual (Intelligence) yuqori malakali va ilmiy faol professor-o'qituvchilari va olimlari bo'lgan universitetlar jahon reytingida yetakchi o'rinlarni

egallaydi. Ushbu intellectual kapital ilmiy nashrlarda, tadqiqot loyihalarida, innovatsion faoliyatda va xalqaro e'tirofda o'z aksini topadi, bu esa universitetning jahon ta'lim hamjamiyatidagi obro'si va mavqei oshirishga yordam beradi.

Oltinchidan, innovatsiyaga (Innovation) asoslangan yangi o'qitish usullari, texnologiyalari va tadqiqot yondashuvlarini faol tatbiq etayotgan universitetlar ko'p hollarda innovatsiyalar va ta'lim sifati uchun yuqori baho oladilar.

Yettinchidan, investitsiya (Investment) kiritish asosida moliyalashtirish universitetlarga infratuzilmani rivojlantirish, taniqli professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilarni jalb qilish, zamonaviy texnologiya foydalanish imkoniyatini ta'minlash, tadqiqot va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Yirik sarmoyaga ega universitetlar akademik sifatning yuqori darajalariga ega bo'lib, bu xalqaro reytinglarda akademik o'rin tadqiqot samaradorligi va o'qitish sifati kabi ko'rsatkichlar orqali o'z aksini topadi.



7- rasm. Dunyoning TOP-1000 universitetlar xalqaro reytingiga kirishning "7 I" tamoyillar tizimi¹⁷

Muallif fikricha, mamlakatimizda ta'limni xalqarolashtirish darajasini oshirish orqali ta'lim turizmi ko'rsatkichlarida ham ijobiy o'zgarish kuzatish mumkin. Bunga yurtimizda turizm sohasiga tegishli qator jarayonlar ham ta'sir etuvchi jozibador omil bo'lib xizmat qiladi:

1. Xorijiy talabalarni jalb qilishda O'zbekistondagi boy madaniy meros va arzon yashash sharoitlari xorijiy talabalar uchun jozibador bo'lib, ta'lim turizmini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Xorijiy talabalar uchun maxsus grantlar va stipendiyalar taqdim etiladi.

2. Mehmonxona va infratuzilmani yaxshilash universitetlar qoshida xalqaro talabalar uchun zamonaviy turar joylar va xizmatlar ko'payishiga olib keladi. Shuningdek, shahar infratuzilmasi ham xorijiy talabalar ehtiyojlariga moslashib

¹⁷ Muallif ishlanmasi

boradi.

3. Madaniy dasturlarni tashkil etish ta'lim turizmini rivojlantirish doirasida madaniy va tarixiy joylarga sayohatlar, mahalliy urf-odatlar va festivallar bilan tanishtirish imkoniyatini beradi. Bu xorijiy talabalarning ta'lim jarayonidan tashqari, mahalliy madaniyat bilan yaqindan tanishishiga ko'maklashadi.

Darhaqiqat, O'zbekiston hukumati ta'limning xalqarolashuvi va ta'lim turizmini yanada rivojlantirish maqsadida turli tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Bu borada O'zbekiston universitetlari va hukumatining sa'y-harakatlari xalqaro hamkorlikni kengaytirish va milliy ta'lim tizimini yanada raqobatbardosh bo'lishiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

XULOSA

Dissertasiya ishini bajarish davomida ilmiy-tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Turizm sohasining muhim turlaridan hisoblangan ta'lim turizmining xususiyatlari kengroq ko'lamda qamrab hamda zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqqan holda xizmatni taqdim etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ham nazarda tutgan holda "ta'lim turizmi" tushunchasining yangi tahrirdagi takomillashgan ta'rifi ishlab chiqildi.

2. Ta'lim turizmi xizmatlari turli mezonlar bo'yicha tasniflanib, ular mos tamoyillarida aks etadi. Jahon iqtisodiyotida, jumladan xizmat ko'rsatish sohasida dinamik o'zgarishlar kuzatilayotgan davrda, Uchinchi Renessans ostonasida amaldagi ta'lim turizmi xizmatlari tamoyillarini mukammallashtirish talab etiladi. Mavjud va muallif tomonidan taklif etilayotgan tamoyillarni birlashtirgan holda ta'lim turizmi tamoyillarining SUSTAINABILITY (Barqarorlik) tizimi ishlab chiqildi.

3. Ta'lim turizmining shakllanish davri ilm-fan, ta'lim xizmatlari shakllanishi, ravnaq topishi bilan bevosita bog'liq tarixiy jarayonlarda aks etadi. Dissertatsiyada ta'lim turizmi xizmatlarining shakllanish va rivojlanish evolyutsiyasi besh bosqichga bo'lindi hamda ta'lim turizmi xizmatlari evolyusiyasiga ta'sir etgan omillar va davriyligi sxemasi shakllantirildi. Unda jarayonlar ketma-ketligi jadvalda ifodalanib, har bir omil alohida izohlangan hamda davriylik nuqtai nazaridan guruhlangan.

4. 2023-2024 o'quv yilida mamlakatimizdagi davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olgan xorijiy talabalar soni 11051 nafarni tashkil etib, ular asosan Toshkent shahri (3863 nafar, 35,0%), Samarqand viloyati (2435 nafar, 22,0%), Buxoro viloyati (1311 nafar, 11,9%), Xorazm viloyati (1201 nafar, 10,9%) Andijon viloyati (866 nafar, 7,8%) hamda Farg'ona viloyati (828 nafar, 7,5%) oliy ta'lim muassasalarida o'qishmoqda.

5. Bilim sohalari bo'yicha tahlil natijalari xorijliklar uchun "Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot" sohasi eng ustuvor ekanligini (78,75%) ko'rsatadi. Keyingi o'rinlarda "Ta'lim" (4,14%), "Biznes, boshqaruv va huquq" (3,93%), "San'at va gumanitar fanlar" (3,61%) sohalari joy egallagan. Qolgan 6 ta bilim sohasi hissasiga atigi 9,32% talaba to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, 28 nafar talaba (0,25%) Foundation tayyorlov bosqichida ta'lim olgan.

6. O‘zbekiston turizmida 2023-yilda ta’lim turizmining hisyasi 0,3%ni tashkil etsa-da, turistik xizmatlar eksportida (2,143 mlrd. AQSh dollari) xorijiy talabalarning ta’lim olishidan mamlakat iqtisodiyotiga tushum hajmining (70,133 mln. AQSh dollari) hisyasi 3,3 %ni tashkil etgani aniqlandi. Bu esa ta’lim turizmining boshqa turizm turlaridan mamlakat iqtisodiyotiga bir necha marta yuqori tushum orqali ta’sir etishini hamda ta’lim turizmini rivojlantirish O‘zbekiston turizmining muhim drayveri bo‘la olishini ko‘rsatmoqda. Demak, ta’lim va turizm sohalarini global hamda milliy ko‘lamda rivojlantirish orqali ta’lim turizmi maqsadidagi tashriflarni oshirishga e’tibor qaratilishi lozim.

7. Ta’lim turizmi ishtirokchilari soniga ko‘pgina omillar ta’sir qiladi. 2023-yil kesimida jahonning 50 ta davlati statistik ma’lumotlari asosida jahon miqyosida ta’lim turizmiga ta’sir etuvchi asosiy 5 ta omil: inflatsiya, dunyo Top-1000 taligiga kiruvchi universitetlar soni, o‘rtacha shartnoma to‘lovi, talaba xavfsizlik koeffitsiyenti, YAIMning aholi jon boshiga miqdori kabi ko‘rsatkichlar tanlab olindi. Bu omillarning ta’lim turizmi bo‘yicha tashrif buyuruvchi turistlar soniga ta’sir darajasini aniqlashda ekonometrik tahlil amalga oshirildi. Ta’lim turistlari oqimiga yuqorida keltirilgan faktorlar ta’sir darajasi o‘rganilib, mamlakatda Top-1000 talikka kiruvchi universitetlar soni eng kuchli ta’sir etuvchi omil ekanligi asoslandi.

8. Mamlakatimizga nufuzli ta’lim tashkilotlari, jumladan Top-1000 talikka kiruvchi universitetlar hamda ularning filiallarini shakllantirish 2024-2028 yillarda ta’lim turistlari sonini prognoz qilingan ko‘rsatkichlariga yetkazish va oshirishga xizmat qilishini inobatga olib, dunyodagi Top-1000 reytingidagi oliy ta’lim muassasalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, ularning filiallarini shakllantirish taklifini o‘rinli deb hisoblaymiz. Shuningdek, hamkorlik alohida fakultetlar, yo‘nalishlar yoki mutaxassislik doirasida ham shakllantirilishi mumkin.

9. O‘zbekistonga ta’lim turizmi oqimining 2024-2028-yillar kesimida kutiladigan ko‘rsatkichlari ekonometrik tahlil asosida prognoz qilinib, yillik o‘rtacha 8,5v% vdan o‘sib borishi o‘rganilgan.

10. O‘zbekistonda ta’lim turizmining joriy holatini o‘rganish maqsadida mamlakatimizda ta’lim olayotgan xorijiy talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomada asosiy muammo sifatida (javoblarning 83 %) ta’lim sifati va ta’lim jarayoni subyektlarning kasbiy til savodxonligi qoniqarli darajada emasligi aniqlandi.

11. Dunyodagi nufuzli reytinglarda o‘rin olgan yetakchi mamlakatlar oliy ta’lim muassasalari hamda mahalliy oliy ta’lim muassasalari faoliyatini taqqoslash, ilmiy adabiyotlar ma’lumotlarini tahlil qilish orqali ta’lim sohasi raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro ko‘lamda ta’lim xizmatlari eksportini amalga oshirishda ishda keltirilgan “7 I” omillariga e’tibor qaratish lozim deb topdik.

12. Buxoro shahri bilan “birodar shaharlar” o‘rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish va ulardan sayyohlarni jalb etish choralarini ko‘rish maqsadida turli tarixiy va madaniy tadbirlar, dasturlarga asoslangan qishki va yozgi maktablar tashkil etish maqsadga muvofiq. Buxoro-Kordova, Buxoro-Malatya, Buxoro-Vladimir, Buxoro-Santa-Fe, Buxoro-Loyan kabi shaharlar o‘rtasida juda bebaho tarixiy, madaniy, diniy meros mavjud. Bu esa noyob va salohiyatli turistik resurs hisoblanib, undan turistik turlar tashkil etishda, yozgi maktablarda asosiy obyekt sifatida foydalanishda yetarli imkoniyatlar mavjud.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/05.05.2023.I. 72.05
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МАХМУДОВА НОДИРА УКТАМОВНА

**ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ**

08.00.17 – Туризм и гостиничное хозяйство

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Бухара – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована под номером B2023.3.PhD/IQT3382 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Бухарского государственного университета (www.buxdu.uz) и на информационно-образовательном портале "Ziynet" (www.ziynet.uz) жойлаштирилган.

Научный руководитель: Эштаев Алишер Абдуганиевич
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Сафаров Баходир Шахриёрович
доктор экономических наук, профессор
Хидирова Гавхар Рустамовна
доктор экономических наук (DSc), доцент

Ведущая организация: Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится " 4 " 01. 2025 года в 14.00 часов на заседании научного совета DSc.03/27.09.2024.1.72.05 при Бухарском государственном университете. Адрес: 200117, город Бухара, улица М.Икбол, дом 11. Тел.: (998 65) 221-26-92, (998 65) 221-27-07, e-mail: ilmiy_innovatsiya@buxdu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № 4/1814). Адрес: 200117, город Бухара, улица М.Икбол, дом 11. Тел.: (998 65) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Автореферат диссертации разослан " 20 " декабря 2024 года.

(Протокол-реестр рассылки № 23 от " 20 " декабря 2024 года).



О.Х. Хамидов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Д.Ш. Явмутов
Учлен секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, кандидат экономических наук, доцент

Б.Н. Навруз-зода
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Туризм является такой уникальной сферой мировой экономики, что его колебания оказывают прямое или косвенное влияние на 50 различных отраслей. Среди них лидирующее положение занимает сфера образования, что подчеркивает важность определения перспективных направлений для эффективного развития как образовательного, так и туристического секторов. Мировой рынок образовательного туризма является одним из самых быстрорастущих. В последние десятилетия образовательный туризм развивается столь же интенсивно, как и массовый туризм. В 2024 году глобальный рынок образовательного туризма был оценен в 470,15 млрд. долларов США, и ожидается что к 2031 году объем этого рынка достигнет 1,092 трлн. долларов США при его среднегодовом темпе роста 12,8 % на прогнозный период 2024-2031.¹⁸ Это подтверждает роль образовательного туризма как одного из драйверов развития международного туристического рынка.

Во всем мире ведутся многочисленные научные исследования, направленные на развитие образовательного туризма в регионах и определение его перспективных направлений. Среди ключевых факторов, стимулирующих рынок образовательного туризма, выделяются реформы и значительный рост в сфере образования, поддерживающая политика государства, рост доходов потребителей, а также расширение среднего класса в развивающихся странах. В то же время глобальная социально-политическая ситуация сформировала необходимость повышения адаптивности образовательного туризма. Совершенствование нормативно-правовой базы для данного вида туризма, гармонизация национальных и международных возможностей, научно-методологические подходы к интернационализации и цифровизации технологических и образовательных платформ, а также создание эффективной системы поддержки различных форм обучения являются приоритетными направлениями научных исследований, направленных на повышение потенциала регионального образовательного туризма.

В процессе построения Нового Узбекистана туризм признан одним из ключевых драйверов развития, и особое внимание уделяется увеличению туристских потоков за счет оптимального использования имеющегося потенциала в перспективных направлениях. В частности, поставлены задачи: “до 2026 года удвоить численность занятых в сфере туризма до 520 тысяч человек, увеличить экспорт услуг в таких сферах, как туризм, транспорт, информационно-коммуникационные технологии, включая программное обеспечение и другие, в 1,7 раза или до 4,3 миллиарда долларов США”.¹⁹ Для реализации этих задач требуется стимулирование развитие туристической отрасли, целенаправленное использование компонентов образовательного туризма путем

¹⁸ Coherent Market Insights. [электронный ресурс]. URL: <https://www.coherentmarketinsights.com/industry-reports/educational-tourism-market>

¹⁹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 г. № УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы”.

совершенствования услуг образовательной системы, повышение эффективности деятельности, влияющей на развитие региональной экономики и определение перспективных направлений для его эффективного развития.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени способствует выполнению задач, установленных в Указах Президента Республики Узбекистан от 02.12.2016 г. № УП-4861 “О мерах по обеспечению ускоренного развития туристской отрасли Республики Узбекистан”, от 03.02.2018 г. № УП-5326 “О дополнительных организационных мерах по созданию благоприятных условий для развития туристского потенциала Республики Узбекистан”, от 28.01.2022 г. № УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы”, от 11.07.2019 г. № УП-5763 “О мерах по реформированию управления в сфере высшего и среднего специального образования”, от 08.10.2019 г. № УП-5847 “Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, в Постановлениях Президента от 24.12.2021 г. № ПП-60 “О дополнительных мерах по обеспечению академической и организационно-управленческой самостоятельности государственных высших образовательных учреждений”, от 05.06.2018 г. № ПП-3775 “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах”, от 26.04.2023 г. № ПП-135 “О дополнительных мерах по ускоренному развитию туристского потенциала республики, а также дальнейшему увеличению количества местных и иностранных туристов” и других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы.

